O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI JIZZAX FILIALI

ISSN 2181-3884

ZAMONAVIY ILMIY-TEXNIK TADQIQOTLAR

xalqaro jurnali

Vol. 2 No. 3

2026

International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research

Volume 2 Issue 3
2026

Zamonaviy ilmiy-texnik tadqiqotlar xalqaro jurnali

3-son
2026

Международный журнал современных научно-технических исследований

Том 2 Выпуск 3
2026

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

Xalqaro ilmiy-elektron jurnali

Tahrir kengashi raisi:

P.f.d., prof., O.X. Turakulov

Bosh muharrir:

A.A. Abdumalikov

Tahrir kengashi mas’ul kotibi:

D.M. Jomurodov

Tahririyat hay’ati:

1. B.f.d., prof., S. Murodova (O’zMU Jizzax filiali, UZB)
2. P.f.n., prof., S. Usmanov (O’zMU Jizzax filiali, UZB)
3. T.f.n., dos., S. Tavboev (O’zMU Jizzax filiali, UZB)
4. F.f.d., prof., N. Djusupov (O’zDJTU, UZB)
5. T.f.d., dos., S. Ruzimov (TTPU, UZB)
6. P.f.d., prof., G. Lekerova (SKU, KZH)
7. DSc., Ali Coşkan (ASUI, TR)
8. T.f.d., prof., D. Irgasheva (TATU, UZB)
9. T.f.d., prof., I. Siddikov (NRU TIIAME, UZB)
10. T.f.n., dos., S. Eshkabilov (NDU, US)

Zamonaviy ilmiy-texnik tadqiqotlar xalqaro elektron jurnali (International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research) O’zMU Jizzax filiali Kengashining qaroriga asosan tashkil etilib, 2022-yil 9-sentabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №038200 raqami bilan ro‘yxatidan o‘tkazilgan, shuningdek davlatlararo standartlar talabi asosida O‘zbekiston Milliy kutubxonasidan jurnal uchun 2181-3884 ISSN raqami olingan.

© “O‘zMU Jizzax filiali” – 2023

Tahririyat manzili:

130100, Jizzax viloyati, Jizzax shahri,
Sh.Rashidov Shox ko‘chasi, 259-uy.

FONETIKA TA'LIMIDA SAVOL TUZISHNING AHAMIYATI VA TURLARI

Ganiyeva Dildora Sagdullayevna

Kattaqo'rg'on davlat pedagogika instituti, dotsent (PhD).
e-mail: dganiyeva084@gmail.uz

Annotatsiya.

Ushbu maqolada o'zbek tilining ona tili va davlat tili sifatida o'qitilishida o'quv topshiriqlarining sifati hamda savollarning ahamiyati tahlil qilinadi. Zamonaviy ta'lim XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirishni talab qilishi, shu bois topshiriq va savollar puxta ishlab chiqilishi hamda baholash mezonlariga mos bo'lishi zarurligi ta'kidlanadi. Asosiy e'tibor fonetik ta'limga qaratilib, savollarning nutqiy faollikni oshirish, bilim, ko'nikma va malakalarni aniqlash hamda mustaqil fikrlashni shakllantirishdagi o'rni yoritiladi. Savollarning ma'lumot olishga qaratilgan, tekshiruvchi, tahliliy va ijodiy turlari ajratilib, ularning maqsadlari misollar asosida izohlanadi. Shuningdek, savolning topshiriqdan farqi, o'qituvchi savollarining psixologik jihatlari, o'quvchilarni savol berishga o'rgatish usullari, Suqrot usuli hamda savol berish orqali o'qitish samaradorligi ilmiy-metodik jihatdan asoslanadi. Savollarning ta'lim jarayonidagi markaziy roli va lingvistik topshiriqlarni nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirishga yo'naltirish zarurati qayd etiladi. Shuningdek, nutqiy ko'nikmalar — tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish — hamda ularni baholash masalalari ko'rib chiqilib, o'quv topshiriqlarini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: o'quv topshiriqlari, savollar, fonetik ta'lim, nutqiy faollik, bilim, ko'nikma va malaka, mustaqil fikrlash, savol turlari, o'qituvchi savollari, Suqrot usuli, nutqiy ko'nikmalar, baholash, ta'lim samaradorligi.

ЗНАЧЕНИЕ И ВИДЫ СОСТАВЛЕНИЯ ВОПРОСОВ ПРИ ОБУЧЕНИИ ФОНЕТИКЕ

Ганиева Дилдора Сагдуллаевна

Каттакурганский государственный педагогический институт, доцент (PhD).

Аннотация.

В статье анализируются качество учебных заданий и значение вопросов при преподавании узбекского языка как родного и государственного. Подчёркивается, что современное образование требует развития навыков XXI века, в связи с чем задания и вопросы должны быть тщательно разработаны и соответствовать критериям оценивания. Основное внимание уделяется обучению фонетике, при этом раскрывается роль вопросов в повышении речевой активности, определении уровня знаний, умений и навыков, а также в формировании самостоятельного мышления. Выделяются информационные, проверочные, аналитические и творческие виды вопросов, а их цели раскрываются на конкретных примерах. Кроме того, с научно-методической точки зрения рассматриваются различия между вопросом и заданием, психологические аспекты вопросов учителя, методы обучения учащихся постановке вопросов, метод Сократа и эффективность обучения посредством вопросов. Отмечаются центральная роль вопросов в образовательном процессе и необходимость направлять лингвистические задания на развитие речевых навыков. Также рассматриваются навыки аудирования, говорения, чтения и письма, вопросы их оценивания и предлагаются рекомендации по совершенствованию учебных заданий.

Ключевые слова: учебные задания, вопросы, обучение фонетике, речевая активность, знания, умения и навыки, самостоятельное мышление, виды вопросов, вопросы учителя, метод Сократа, речевые навыки, оценивание, эффективность обучения.

THE IMPORTANCE AND TYPES OF QUESTION FORMULATION IN TEACHING PHONETICS

Ganiyeva Dildora Sagdullayevna

Kattakurgan State Pedagogical Institute, Associate Professor (PhD).

Abstract.

This article analyzes the quality of learning tasks and the importance of questions in teaching Uzbek as both a native and a state language. It emphasizes that modern education requires the development of twenty-first-century skills and, therefore, learning tasks and questions should be carefully designed and aligned with assessment criteria. Particular attention is given to phonetics instruction, highlighting the role of questions in increasing learners' speech activity, assessing their knowledge and skills, and developing independent thinking. Questions are classified into information-seeking, checking, analytical, and creative types, with their purposes illustrated through examples. The article also provides a scientific and methodological examination of the distinction between questions and tasks, the psychological aspects of teachers' questions, methods of teaching students how to formulate questions, the Socratic method, and the effectiveness of question-based instruction. The central role of questions in the educational process and the need to orient linguistic tasks toward the development of language skills are emphasized. In addition, listening, speaking, reading, and writing skills and their assessment are discussed, and recommendations for improving learning tasks are provided.

Keywords: learning tasks, questions, phonetics instruction, speech activity, knowledge and skills, independent thinking, types of questions, teacher questions, Socratic method, language skills, assessment, teaching effectiveness.

Kirish. O‘zbek tilining ona tili va davlat tili sifatida o‘qitilishi bo‘yicha yanada keng ko‘lamli tadqiqotlar olib borilishi zarur. Ayniqsa, bu sohada o‘quv topshiriqlaridan foydalanish masalasida muayyan kamchiliklar mavjud bo‘lib, ularning mazmuni alohida ilmiy o‘rganishni talab qiladi. Jahon til o‘qitish metodikasida asosiy e’tibor o‘quv topshiriqlarining sifatiga qaratiladi. O‘quvchida nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish yoki shakllantirish bir bosqichli oddiy jarayon emas, shu sababli topshiriq va savollar ham bir xil bo‘lmaydi. Faoliyatni tashkil etish bosqichlari qancha ko‘p bo‘lsa, natijaga yetguncha mashq, topshiriq va savollarning vazifasi ham shunchalik rang-barang bo‘ladi.

Zamonaviy o‘qitish metodikasi o‘quvchilarda XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirishni talab qilar ekan, demak, o‘quv topshiriqlari ham zudlik bilan shu talabga moslashishi kerak. O‘zbek tilining ona tili va davlat tili, shuningdek, ikkinchi til sifatida o‘qitilishida ko‘pincha shunchaki ishlab chiqilgan savol va topshiriqlardan foydalaniladi. Aslida har bir savol va har bir topshiriq puxta o‘ylangan, belgilangan mezonlar asosida ishlab chiqilishi lozim. Mavjud o‘quv topshiriqlarining eng noqulay jihati ularning zamonaviy baholash talablariga mos kelmasligidir. Har bir mashg‘ulot muayyan ko‘nikma yoki malakani hosil qilish uchun taqdim etiladi. Savollardan foydalanish masalasida ham natijalar ijobiy emas, zero, savollar qanday vazifalarni bajarishi haqida mulohaza qilish zarur. Mashg‘ulot jarayonida savoldan, avvalo, o‘zlashtirilgan bilimning ko‘lami, sifati, ma’lumotga munosabati va tafakkur tarzini aniqlashda foydalanish samarali bo‘ladi. Zamonaviy ta’limda vositani faqat bitta vazifani bajarishga mo‘ljallash vaqtni isrof qilish bilan tengdir.

Til o‘qitishda mashqning bajaradigan vazifalarini va qo‘llanilish o‘rinlarini aniqlab olish lozim. Aksariyat mamlakatlar ta’lim tizimida lingvistik topshiriqlar nutqiy topshiriqlarga nisbatan ancha kam qo‘llaniladi. O‘zbek tili ta’limida esa lingvistik topshiriqlardan keragidan ortiq foydalanilmoqda. Agar topshiriqlar orqali lingvistik ma’lumotlar ham nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga bo‘ysundirilsa, nutqiy kompetensiyaga tezroq erishish mumkin.

Dunyo til o‘qitish tajribasida nutqiy ko‘nikmalar to‘rtta: tinglab tushunish, gapirish, o‘qish va yozish ko‘nikmalari bo‘lib, ularni shakllantirish bo‘yicha beriladigan savol va topshiriqlar baholashga juda qulay tarzda ishlab chiqilgan. Ta’limda baholashning qulay, samarali yo‘li ishlab chiqilsagina, uning foydasi bo‘ladi. Bilim, ko‘nikma va malakani baholay olmadimi, demak, u topshiriq sifatsizdir. Shuning uchun ham savol va topshiriqlar ishlab chiqishda quyidagicha yondashish lozim:

1. O‘quv dasturlarida dars, mashg‘ulot mavzusini mantiqan to‘g‘ri qayd etish.
2. Ish rejalaridagi mavzularni ko‘zda tutilayotgan bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantira olish imkoniyatini hisobga olib tanlash.
3. Mavzuga doir o‘quv topshiriqlarini foydalilik darajasi bo‘yicha saralab olish.
4. Bugungi mavzuda asosan qanday o‘quv topshirig‘idan faol foydalanish mumkinligiga to‘g‘ri tashxis qo‘yib olish.
5. Mashqlardan takrorlashni talab qiluvchi o‘qish, yozish, gapirish ko‘nikmalarini shakllantirishda foydalanish.

Fonetik ta’lim jarayonida savol o‘quvchilarning nutqiy faoliyatini faollashtirish, ularni mustaqil fikrlashga va talaffuz ko‘nikmalarini takomillashtirishga undashda muhim vosita hisoblanadi. Savol nafaqat bilimni tekshirish, balki talaffuz mashqlari, intonatsiya va urg‘uni o‘rganish jarayonini samarali tashkil etishda ham markaziy rol o‘ynaydi.

1. Savolning ahamiyati

Fonetik darslarda savol quyidagi jihatlarda ahamiyatga ega:

1. Faol ishtirokni rag‘batlantirish: O‘quvchilar savol orqali darsda faol qatnashadi, talaffuz mashqlarini mustaqil bajarishga harakat qiladi.

2. Bilim va ko‘nikmalarni aniqlash: Savollar yordamida o‘quvchining undosh va unli tovushlarni, intonatsiya va urg‘uni tushunish darajasi baholanadi.

3. Nutq madaniyatini rivojlantirish: Savol o‘quvchilarga to‘g‘ri talaffuz qilish, ohang va urg‘uni to‘g‘ri qo‘llash imkonini beradi.

4. Mustaqil fikrlashni shakllantirish: O‘quvchilar javob berish jarayonida tovush va talaffuz xatolarini aniqlash, tahlil qilish va to‘g‘rilash ko‘nikmalarini egallaydi.

2. Savol turlari fonetik ta’limda

Fonetik darslarda savollar mazmuni va maqsadiga qarab turli turlarga bo‘linadi:

1. **Ma’lumot olishga yo‘naltirilgan savollar:**
- Maqsad: o‘quvchilardan ma’lumot yoki bilimni so‘rash.
- Misol: “X” undoshi qanday talaffuz qilinadi?” yoki “Qisqa va uzun “o” unlisining farqi nimada?”
2. **Tekshiruvchi savollar:**
- Maqsad: o‘quvchining bilimi va ko‘nikmasini baholash.
- Misol: “Quyidagi so‘zda urg‘u qayerga tushadi?” yoki “Bu so‘zdagi [s] va [sh] tovushlarini ajratib talaffuz qil.”
3. **Tahlil va fikrlashga yo‘naltirilgan savollar:**
- Maqsad: o‘quvchini mustaqil fikrlash va muammoli vaziyatlarni hal qilishga undash.
- Misol: “Nega bu gapda intonatsiya ohangi savol ohangiga o‘xshash?” yoki “Bu so‘zlarni talaffuz qilganda xatolar qayerda yuz beradi?”
4. **Ijodiy savollar:**
- Maqsad: o‘quvchilarning talaffuz va intonatsiya bilan ijodiy ishlashini rag‘batlantirish.
- Misol: “O‘zingiz yaratgan gapni to‘g‘ri talaffuz bilan o‘qing” yoki “Bu she’rni urg‘u va intonatsiya bilan o‘qib ko‘ring.”

Savolning to‘g‘ri tuzilishi va turli turlarini qo‘llash fonetik ta’lim jarayonini interaktiv, qiziqarli va samarali qiladi. Shu bilan birga, o‘quvchilarning nutqiy ko‘nikmalari, talaffuz aniqligi va nutq madaniyati sezilarli darajada rivojlanadi.

Savol turi	Maqsadi	Misol
Ma’lumot olishga yo‘naltirilgan	O‘quvchilardan ma’lumot yoki bilimni so‘rash	“x” undoshi qanday talaffuz qilinadi?”; “Qisqa va uzun “o” unlisining farqi nimada?”
Tekshiruvchi	O‘quvchining bilimi va ko‘nikmasini baholash	“Quyidagi so‘zda qaerda urg‘u tushadi?”; “Bu so‘zdagi [s] va [sh] tovushlarini ajratib talaffuz qil.”
Tahlil va fikrlashga yo‘naltirilgan	O‘quvchini mustaqil fikrlash va muammoli vaziyatlarni hal qilishga undash	“Nega bu gapda intonatsiya ohangi savol ohangiga o‘xshash?”; “Bu so‘zlarni talaffuz qilganda xatolar qayerda yuz beradi?”
Ijodiy	O‘quvchilarning talaffuz va intonatsiya bilan ijodiy ishlashini rag‘batlantirish	“O‘zingiz yaratgan gapni to‘g‘ri talaffuz bilan o‘qing”; “Bu she’rni urg‘u va intonatsiya bilan o‘qib ko‘ring”.

Savol — ham o‘quv topshirig‘i hisoblanib, hali alohida tadqiq etilmagan. Uning ona tili o‘qitish metodikasida qanday ahamiyat kasb etishi, vazifasi, turlari, tasnifi, qo‘llanilish o‘rinlari va tarkibi o‘rganilmagan. Mezonlari ishlab chiqilmagan. Metodik qo‘llanmalarda, darsliklarda topshiriqlar bilan birga qo‘llaniladi, ko‘pincha topshiriq bilan almashtiriladi, topshiriqning tarkibiga kiritib yuboriladi. Aslida metodikada savolning o‘z o‘rni va vazifasi bor. U topshiriqdan aniq farq qiladi. Ba’zan topshiriq bilan bir xil vazifalarni bajarishi mumkin, ammo bu bir narsa degani emas. Amaldagi darsliklarda “Savol va topshiriqlar” rukni ostida faqat savollar beriladi. Bu — mazkur tushunchaning mazmun-mohiyatini yondosh tushunchalarga nisbatan farqlab olish zarurligini ko‘rsatadi.

Zero, ijtimoiy hayotda ham savol muhim ahamiyatga egadir. Javob — savolning qanday berilganiga bog‘liq. Demak, o‘quvchilarga to‘g‘ri, o‘rinli va maqsadli savol bera olsak, ularning bergan javobi jamiyat taraqqiyoti uchun qaysidir ma’noda foydali bo‘ladi.

Shu o‘rinda “savol nima o‘zi?” degan savolga ham javob izlash, uni ilmiy-metodik jihatdan tekshirib ko‘rish zarurati paydo bo‘ladi. O‘zbek tilining izohli lug‘atida savolga shunday ta’rif va tavsif berilgan: SAVOL — [a. — so‘roq; iltimos]

1. Javob olish uchun aytiladigan gap, jumla; so‘roq. — [Vasila Nazarovna:] Sen mening savolimga javob ber, kim u? O‘. Hoshimov, Qalbingga quloq sol. — Juda yaxshi savol! — dedi Ibrohimov, — qani, bu savolga kim javob beradi? A. Qahhor, Qo‘shchinor chiroqlari. Savol alomati — esk. So‘roq belgisi. Savol alomati hamma vaqt “mi”dan keyin qo‘yiladi desam, kuladi. A. Qahhor, Adabiyot muallimi. Yetti og‘ayni ham ko‘kda nogahon Savol alomati bo‘lib ko‘ringay. A. Oripov.
2. Imtihon biletida yozib qo‘yilgan, javob berish lozim bo‘lgan mavzular nomi yoki mashq, masala. Ikkinchi qatorga borib o‘tirganidan keyin mashinkada yozilgan savollarni o‘qidi: — 1. Joul-Lens qonuni. 2. Rezonans. Uchinchi

savol elektromagnit maydoni haqidagi masala edi. O‘. Hoshimov, Qalbingga quloq sol.

3. Yechilishi lozim bo‘lgan masala, muammo. Bugungi yig‘ilishimizda ikkita savolni hal qilishimiz lozim. Gazetadan [1].

Hayotda ham, pedagogikada ham savolning vazifasi biri ikkinchisidan unchalik uzoq emas. Biroq ona tili o‘qitish metodikasida ta’limning boshqa sohalariga qaraganda muhimroq ahamiyat kasb etadi. Uning bu boradagi pedagogik yuki o‘quvchi shaxsini fikrlashga o‘rgatish, bilimlarini sinash, ko‘nikmasini tekshirish kabilar bilan belgilanadi.

Ta’limda, xususan, ona tili o‘qitishda savollardan turli maqsadlarda foydalanish mumkin:

A) o‘quvchi bilimini aniqlashga doir;

B) o‘quvchi qobiliyatini aniqlashga doir;

S) o‘quvchining fikrlash ko‘nikmasini aniqlashga doir;

D) o‘quvchining xotirasini tekshirib ko‘rishga doir.

O‘qituvchi sinfga savollar bilan murojaat qiladigan juda ko‘p maqsadlar mavjud. Asosiylarini ko‘rib chiqamiz. Demak, o‘qituvchi quyidagi maqsadlarda savollar berishi mumkin:

— o‘quv materialini bilish va tushunish darajasini yoki shakllantirilgan vazifalarning shart-sharoitlarini tushunish darajasini aniqlash;

— o‘quvchilarning ehtiyojlarini aniqlash va motivatsiyalarini shakllantirish;

— o‘quvchilarning o‘quv-biluv faoliyatini tashkil etish, savollar asosida topshiriq berish va olingan natijalarni o‘rganish;

— faoliyatda qaror qabul qilish va o‘z-o‘zini baholashiga imkon berish, masalan, o‘qituvchi o‘quvchiga biror masalani o‘zi hal qilishi, gipotezani shakllantirishi va kerakli xulosalar chiqarishiga yordam berish uchun savollar beradi.

O‘qituvchi o‘quvchiga qanday savollar berishi kerak?

O‘qituvchining o‘quvchilarga qaratilgan savollarini maqsadga ko‘ra quyidagicha tasniflash mumkin:

— to‘g‘ridan-to‘g‘ri savol — bilim masalasi; odatda aniq javob bor;

— tushunish savoli — bilimlarni yodlash yoki tushunish orqali egallanganligini aniqlashga qaratilgan savol;

— yetakchi savol — o‘quvchiga qiyin vaziyatda qaror qabul qilishga yordam beradigan savol;

— tushuntirish savoli — o‘quvchining o‘z javobini to‘ldirish maqsadida o‘qituvchi bergan savol;

— ochiq savol — o‘quv vaziyatini tahlil qilish, baholash yoki aks ettirish uchun savol, shuningdek, ijodiy savol (masalan, shartlilik, taxmin yoki prognoz elementlari bo‘lgan savol).

O‘quvchilar bilan samarali muloqot qilish uchun o‘qituvchi barcha turdagi savollar bo‘yicha malakaga ega bo‘lishi kerak. Bu borada yetakchi va ochiq savollar nihoyatda muhimdir, chunki ular o‘quvchilarni fikrlashga o‘rgatadi.

Savol berish bilan bog‘liq qanday muammolar mavjud?

Odatda savol berish qiyin emasdek tuyulishi mumkin, unga javob berish ham oson emas. O‘qituvchi tomonidan beriladigan savollar shunchalik o‘ylab berilishi kerakki, o‘quvchilarning bunday savollarga beradigan javoblari mamlakat taraqqiyotiga xizmat qilsin, o‘quvchi hayoti davomida unga foyda keltirsin. Zero, o‘qituvchi bergan savollar, shuningdek, ularni so‘rash yo‘li o‘quv materialining bilim darajasini, uning aql-zakovatini va ishga bo‘lgan munosabatini ochib berish bilan birga, o‘quvchilarni turli muloqot vaziyatlariga tayyorlashi kerak. Shu sababli ham savol berish qiyin bo‘lmog‘i lozim. “Berilgan she’riy misralarda nechta unli qatnashgan?” degan savol o‘quvchi uchun qanchalik foydali ekanligi haqida jiddiy o‘ylab ko‘rilishi kerak.

Endi o‘qituvchi tomonidan savol berishda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolarni ko‘rib chiqaylik.

1. O‘qituvchining so‘zi o‘quvchiga tushunarli emas.

2. Savollarning bir xil turini belgilash. O‘qituvchilar ko‘pincha to‘g‘ridan-to‘g‘ri va tushunish uchun savollar beradi va muammoli savollar berilmaydi. Odatda o‘quv materialini bilish va tushunish darajasini aniqlash maqsadida savollar beriladi, ya’ni savoldan, asosan, nazorat vositasi, o‘quvchilarning o‘quv-biluv faoliyatini tashkil etish vositasi sifatida foydalaniladi.

3. Noto‘g‘ri javoblarga salbiy reaksiyaning yetishmasligi. Bunday reaksiyalar tufayli xatodan qo‘rqish hosil bo‘ladi. Aksincha, har kim xato qilishi mumkinligi haqida tushuncha hosil qilish kerak. O‘quvchining o‘zini tuzatishiga yetakchi savollar berish foydalidir. O‘quvchining savolga javobi bo‘lmasa, boshqa savol berish kerak. Agar u bunga javob qila olsa, bahosini tushirmaslik kerak.

4. O‘qituvchi o‘quvchilarning o‘ylab javob berishiga imkon bermaydi. O‘quvchilarning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olib savollar berish tajribasi qo‘llanilmaydi. Unutmaslik lozimki, o‘quvchilarga javob haqida o‘ylash uchun turlicha vaqt kerak va taqdimot turli shaklda bo‘lishi lozim. Misol uchun, kimgadir butun sinf oldida emas, balki yozma ravishda javob berish qulay va hokazo.

Shu o‘rinda psixologik nuqtayi nazardan o‘qituvchi va ota-onalar uchun quyidagicha tavsiyalar berish mumkin:

O‘quvchiga (bolaga) ritorik savollar bermaslik kerak, masalan:

“Men buni tushuntirganimda qayerda eding?”

“Menga nega diqqat bilan quloq solmading?”

“Buni sizga qachongacha tushuntiraman?” va hokazo.

Bu savollar bolaning qadr-qimmatiga ta’sir qiladi va haqoratdek qabul qilinadi.

O‘quvchilar tomonidan beriladigan savollar. Nega o‘quvchilarni savol berishga o‘rgatish kerak? Bugungi kunda nima muhimroq deb o‘ylaysiz? Savol berishga o‘rgatilganlar turli maqsadlarni qo‘yishlari, ularga erishishlari va xatolarni tahlil qilishlari mumkin. Maqsadlarni aniqlab olish qobiliyati insonning muvaffaqiyatini belgilaydi.

Savollar va topshiriqlarni bajarib, fikrlashni rivojlantirishga o‘rganadilar. Nima foydaliroq: o‘qituvchining savoliga javob qidirishmi yoki taklif etilayotgan materialga o‘z savollarini shakllantirishmi? Ma’lum bir mavzu doirasida savol berishga o‘rgatish orqali muayyan fanning mazmunini o‘rgatish mumkin. Bunday savollarni rag‘batlantirish orqali bu fanga qiziqish hosil qilish mumkin.

O‘qituvchi o‘quvchilarning savollariga qanday javob berishi lozim?

1. O‘quvchilarning savollariga rag‘bat bildirish.
2. Juda yaxshi savollarni alohida ta’kidlash kerak.
3. Mantiqsiz savollarga ham xolis munosabat bildirish. Har qanday savolni jiddiy qabul qilish va besh daqiqa oldin tushuntirilgan bo‘lsa ham, juda muhim deb javob berish kerak.

Bu qoidalarga amal qilish o‘quvchilarning tez-tez va ixtiyoriy savollar bera boshlashiga olib keladi. O‘quvchilarga savol berishda yanada faolroq bo‘lishlari nima uchun juda muhimligini tushuntirish kerak.

Yana bir muhim masala. Agar o‘qituvchi savolga javobni bilmasa, nima qilishi kerak? Agar savol o‘quv materialiga tegishli bo‘lsa, o‘qituvchi qattiq ishlashi va unga javob berishi kerak. Ba’zan savollar darslik doirasidan tashqariga chiqishi mumkin. Savolning javobini bilmasligini tan olishi va keyingi darsda javob berishga harakat qilishi mumkin. Bilmaslik ayb emas, bilishni istamaslik aybdir.

O‘quvchini to‘g‘ri savol berishga qanday o‘rgatsa bo‘ladi? Har bir o‘qituvchi bir qator topshiriqlardan foydalanishi mumkin, ularning mazmuni o‘quvchilardan savollar tuzishni talab qiladi. Bunday topshiriqlarning ayrim namunalarini ko‘rib chiqamiz.

1. Taklif etilayotgan o‘quv materiali uchun savollar tuzish. An’anaviy o‘qitishda o‘qituvchilar o‘quvchilarga paragrafdan keyin joylashtirilgan savollarga javob berishni so‘rab, ko‘rib chiqilgan paragrafga o‘z savollarini shakllantirishni kamroq taklif qiladilar. Teskari o‘rganish o‘quvchilarning o‘quv materialini mustaqil o‘zlashtirishlarini, masalan, o‘qituvchi taklif etgan savollarga e’tibor qaratishlarini nazarda tutadi. Mavzuni o‘rganish jarayonida o‘quvchilar sinfda muhokama qilmoqchi bo‘lgan savollar ro‘yxatini tuzadilar.
2. Maqsadni belgilash bosqichida o‘quvchilardan dars davomida javob topmoqchi bo‘lgan bir qator savollarni shakllantirishlarini so‘rashingiz mumkin. Bu savollarni sinf taxtasida yoki daftarlarda aks ettirish maqsadga muvofiqdir. Dars oxirida berilgan savollar va olingan javoblarga yana e’tibor berish kerak.
3. Bilimlarni boyitish yoki bilimlarni mustahkamlash bosqichida o‘quvchilarga ma’lum bir mavzu bilan bog‘liq kalit so‘zlarni taklif qilish mumkin. Kalit so‘zlarni o‘quvchilarning o‘zlari qo‘yishlari mumkin. Keyin o‘quvchilar bu so‘zlar haqida savollar tuzishlari kerak. Topshiriqni nafaqat frontal, balki musobaqa shaklidagi juftlik yoki guruhlarda ham bajarish mumkin. Misol uchun, bir guruh tasodifiy bir kalit so‘zni tortadi va buning uchun bir savol hosil qiladi. Yaxshi savol uchun ball berilishi mumkin.
4. Bilimlarni aktuallashtirish bosqichida o‘quvchilar o‘rtasida o‘zaro so‘rov o‘tkazilishi mumkin, bunda bir o‘quvchi boshqasidan so‘raydi, keyin javob beruvchi o‘quvchi uchinchisidan so‘raydi va hokazo. Bunday so‘rovning asosiy sharti: har bir o‘quvchi bitta savolga javob berishi va bitta savol berishi kerak.
5. Teskari topshiriqlar. O‘quvchilar odatda topshiriqni bajarishda aniq savollarga javob beradilar. Masalan, yechilgan muammo bo‘yicha shart va talablarni shakllantirish yoki muammo shartiga qo‘yilgan maksimal talablarni shakllantirish; tayyor chizma, jadval, formula, foto, video uchun savollar bilan chiqish; mavjud javoblar uchun savollar tuzish. Bunday topshiriqlarni bajarish musobaqa shaklida juftlik yoki guruhlarda ham tashkil etilishi mumkin.
6. Rolli o‘yinlar. Ushbu o‘yinlarning shartlari ko‘pincha savollarni shakllantirishni o‘z ichiga oladi. Masalan, dars matbuot anjumani shaklida tashkil etilib, unda o‘quvchi-jurnalistlar olimga savollar berib (bu rolni o‘qituvchi yoki o‘quvchi o‘ynashi mumkin), so‘ngra olingan material bo‘yicha maqolalar yozishlari mumkin. Darsni tashkil etishning yana bir namunasi olimlar tomonidan ilmiy-tadqiqot natijalarini ilmiy jamoatchilikka taqdim etish bo‘lishi mumkin. O‘quvchilar qarshi tomon, ya’ni boshqa olimlar sifatida harakat qilib, taqdim etilgan hisobotni ko‘rib chiqishlari kerak.

Bu o‘rinda quyidagi so‘roq olmoshlaridan samarali foydalanish mumkin: *Nima? Qachon? Nima uchun? Qayerda? Qayoqdan? Qanday qilib?*

Suqrot usulidagi “Yaxshi so‘rash — yaxshi o‘rgatishdir” degan fikr o‘quvchiga bilim berishning eng foydali yo‘llaridan biridir. Savol berish orqali o‘qitish juda samarali ta’lim usuli ekanligini ta’kidlagan Leven va Long o‘z tadqiqotlarida ma’lum qilishicha, odatda o‘qituvchi kuniga 300 dan 400 gacha savol beradi (1981) [1]. Demak, savollar har qanday mashg‘ulotning asosini tashkil etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Nabiyeva D., Zokirova H. *O‘zbek tili fonetikasi: o‘quv-uslubiy qo‘llanma.* – Andijon, 2016. – B. 36.
2. Бонк Н. А., Котий Г. А., Лукьянова Н. А. *Учебник английского языка.* – Москва: Деконт, 1999. – С. 7.
3. Hamroyev G‘. *Ona tili o‘qitishning samarali usullari: o‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma.* – Toshkent: Bayoz nashriyoti, 2018. – 197 b.

4. Umarov E. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida unlilarni tasniflash masalasiga doir // *O‘zbek tili va adabiyoti.* – 1995. – № 2. – B. 52–53.
5. *O‘zbek tilining izohli lug‘ati.* – 5 jildlik. – 2-jild. – Toshkent: O‘zME, 2004. – 569 b.